neering: konstruksiya, maths: hisob-kitob, art: dizayn). Maket qurish – ko‘prik, uy, avtomobil modeli, robot prototipi. 3D modellashtirish va 3D chop etish orqali real detallarni yaratish. Yog‘och va metallga ishlov berishning ilmiy asosiga tayangan amaliy ishlanmalar. Bunday loyihalar o‘quvchini faqat mahsulot yasashga emas, balki jarayonni ilmiy asosda rejalashtirishga, sinovdan o‘tkazishga va tahlil qilishga o‘rgatadi. STEAM ta’limini amalga oshirish qiziqishni uyg‘otadigan ta’lim muhitini yaratish va o‘quv dasturlarini amaliy, tadqiqotga asoslangan usullarga moslashtirishdan boshlanadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, STEAM ta’limini amalga oshirish o‘qituvchilardan o‘quvchilarga o‘rgatadigan fan predmeti mavzulari materiallarini o‘zaro bog‘liqlikda predmetlararo aloqalarni yo‘lga qo‘ygan holda o‘rgatish taqozo qiladi. Dars mashg‘ulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, o‘rgatilayotgan qonun-qoidalar, hodisa va jarayonlarning amaliy yo‘nalganligini ta’minlash, o‘quvchilarning texnik ijodkorligini oshiradi va ularning innovatsion fikrlashga yo‘naltiradi. Dars va darsdagn tashqari mashg‘ulotlarda loyihalar metodidan foydalanish o‘quvchilarni yakka mustaqil tarzda va jamoada ishlash, o‘z fikrldarini va takliflarini taqdimotlar ko‘rinishida ximoya qilish qilish ko‘nimalarini shakllantiradi. Bular, o‘z navbatida, o‘quvchilarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich tayanch kompetensiyalarini shakllanishiga olib keladi. Kelajakda mehnat bozori talablariga javob bera oladigan va raqobatbardosh, ishlab chiqarish jarayonlarida bo‘layotgan texnik va texnologik o‘zgarishlarga tezda moslasha oladigan, texnik va ijodiy fikrlashga qodir shaxs bo‘lib shakllanadilar.

Xulosa. STEAM ta’limini amalga oshirish o‘qituvchilardan va maktab rahbariyatidan ko‘p mehnat va moddiy resurlarni talab qiladi. Bu degani bu omillarning barchasini ta’minlanishini kutib o‘tirish kerak degani emas. Shunday ekan, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, fan predmetlari mashg‘ulotlarida jumladan texnologiya darslarida STEAM texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish va ularda zarur amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishi zarur. Bu bilan biz o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlari, ko‘nikma va malakalaridan maishiy hayotda va xalq xo‘jaligining turli sohalarida o‘z tanlagan kasbiy faoliyatida to‘laqonli foydalanishiga zamin yaratgan bo‘lamiz.

Foylanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent, «O‘zbekiston» NMIU, 2017, 168-bet.

(2). O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi. (2020). O‘zbekiston va UNESKO STEAM ta’limi sohasida hamkorlik qiladi. URL: https://mfa.uz/uz/press/news/2020/10/23182/

(3). Becker K., Park K. “Effects of integrative approaches (STEM/STEAM) on student learning.” Journal of STEM Education, 12(5), p. 23–37, 2011.

(4). Деде К. (2017). Образование STEM и STEAM: введение. Политические аспекты поведенческих и мозговых наук, 4(2), с. 171–178.

(5). G‘ulomov X., Abdukarimov B. Kasbiy ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, TDPU. 2020, 184-bet.

(6). Muslimov N.A. va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma, T., “Sano-standart”, 2015, 208-bet.

(7). Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в образовании. Москва, “Академия”, 2019, 174 с.

(8). Хеппо Д., Куигли К. (2016). Исследование отношений между эффективностью учителя и профессиональным развитием для интеграции технологий в классную комнату. Компьютеры и образование, 102, с. 90–106.

Safarova Nigora Nasilloyevna (Buxoro davlat Pedagogika institutining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, p.f.f.d. (PhD), dotsent; safarovanigora2211@gmail.com)

KASBIY KOMPETENTLIKNI BAHOLASHNING ASOSIY MEZONLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kompetensiyalarni baholashda qo‘llaniladigan sifatli, miqdoriy va kombinatsiyalashgan usullar, baholash mezonlari, kasbiy rivojlanish bosqichlari va darajalari ko‘rib chiqiladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’lim sifatini oshirish, pedagogik mahoratni rivojlantirish va zamonaviy talablarga javob beradigan malakali o‘qituvchilarni tayyorlashda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *baholash mezonlari, kompetensiya modellari, miqdoriy va sifat usullar, pedagogik amaliyot, attestatsiya, refleksiya.*

Сафарова Нигора Насиллоевна (проректор по научной работе и инновациям Бухарского государственного педагогического института, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент; E-mail: safarovanigora2211@gmail.com)

ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются качественные, количественные и комбинированные методы, критерии оценки, этапы и уровни профессионального развития, используемые при оценке компетенций. Обосновано, что компетентностный подход является важным фактором повышения качества образования, развития педагогического мастерства и подготовки квалифицированных учителей, отвечающих современным требованиям.*

Ключевые слова: *критерии оценивания, модели компетенций, количественные и качественные методы, педагогическая практика, аттестация, рефлексия.*

Safarova Nigora Nasilloyevna (Vice-Rector for Research and Innovation, Bukhara State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor; Email: safarovanigora2211@gmail.com)

MAIN CRITERIA FOR EVALUATING PROFESSIONAL COMPETENCE

Annotation. *This article examines the qualitative, quantitative, and combined methods, evaluation criteria, and stages and levels of professional development used in competence assessment. It is substantiated that the competency-based approach is an important factor in improving the quality of education, developing pedagogical mastery, and training qualified teachers who meet modern requirements.*

Keywords: *Assessment criteria, competence models, quantitative and qualitative methods, pedagogical practice, certification, reflection.*

Kirish. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash ularning pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasi, amaliy ko‘nikmalari va shaxsiy sifatlariga asoslanadi. Ta’lim jarayonida kompetentlikni xolis baholash uchun quyidagi asosiy mezonlar muhim hisoblanadi:

•*Uzluksiz kasbiy rivojlanishga intilish* – bo‘lajak o‘qituvchining o‘z bilim va malakasini doimiy oshirib borishi, seminar, trening va malaka oshirish kurslarida faol ishtirok etishi, pedagogik yangiliklarni o‘rganishga qiziqishi.

•*Jamoada samarali ishlash va kommunikativlik* – hamkasblar bilan hamkorlik qila olish, boshqalarning fikrini tinglash va hurmat qilish, o‘quvchilar hamda pedagogik jamoa bilan samarali muloqot o‘rnatish qobiliyati.

•*Natijadorlik va mas’uliyatlilik* – dars jarayonini aniq rejalashtirish, belgilangan maqsadlarga erishish, o‘quv jarayonini sifatli tashkil etish, xatolarning oldini olish va pedagogik talab hamda me’yorlarga rioya qilish.

•*Tashabbuskorlik va ijodkorlik* – ta’lim jarayonida yangi yondashuvlarni qo‘llash, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topish hamda pedagogik loyihalarda faol ishtirok etish.

•*Moslashuvchanlik va raqamli savodxonlik* – zamonaviy ta’lim texnologiyalariga tez moslasha olish, raqamli vositalardan samarali foydalanish, pedagogik faoliyatda yangiliklarga ochiqlik va kasbiy mobillikni namoyon etish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi hamda ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi [1].

Adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash ta’lim jarayonida ularning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini aniqlashga qaratiladi. Bunda quyidagi mezonlar asosiy ahamiyatga ega:

•*Kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi* – bo‘lajak o‘qituvchining har bir ta’lim bosqichida egallashi lozim bo‘lgan pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarning qay darajada shakllanganligi. Bu o‘quv reja va fan dasturlariga mos ravishda aniqlanadi.

•*Pedagogik vaziyatlarda kompetensiyalarni qo‘llay olishga tayyorgarlik* – turli ta’limiy vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topish qobiliyati: darsga oid keyslarni hal qilish, muammoli vaziyatlar uchun metodik yechimlar ishlab chiqish, boshqa talabalar tomonidan taklif etilgan yechimlarni tahlil qilish va baholash.

•*Amaliy yutuqlar va portfolioni shakllantirish* – bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik amaliyot davomida erishgan natijalari, tayyorlagan dars ishlanmalari, metodik materiallar, loyihalar va ishtirok etgan tadbirlar asosida tuzilgan kasbiy portfolio.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning yetakchilik kompetensiyalari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

•*Tashkiliy-boshqaruv ko'nikmalari* – sinf jamoasini boshqarish, dars jarayonini tashkil etish va o'quv faoliyatini muvofiqlashtirish qobiliyati.

•*Strategik fikrlash* – ta'lim jarayonini uzoq muddatli maqsadlar asosida rejalashtirish va rivojlantirishga yo'naltirish.

•*Shaxsiy fazilatlar* – mas'uliyat, qat'iyat, tashabbuskorlik, empatiya va stressga chidamlilik kabi sifatlar.

•*Kasbiy va ijtimoiy qadriyatlarni anglash* – pedagogik kasbning jamiyatdagi o'rnini tushunish va ta'lim qadriyatlariga sodiqlik.

•*Sog'lom ambitsiyalar va rivojlanishga intilish* – o'z kasbiy salohiyatini doimiy oshirishga intilish, innovatsion g'oyalarga ochiqlik.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini xolis baholashga xizmat qiladi va ularning pedagogik faoliyatga samarali kirib borishini ta'minlaydi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash turli usullar orqali amalga oshiriladi. Ushbu usullar ta'lim jarayonida ularning bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini xolis aniqlashga yordam beradi hamda quyidagi uch asosiy guruhga bo'linadi:

•***Sifatli usullar*** – bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyatini kuzatish, dars o'tish jarayonini tahlil qilish, suhbatlar, refleksiya va pedagogik amaliyot natijalarini o'rganish orqali uning kasbiy tayyorgarlik darajasini baholashga qaratilgan. Bu usullar orqali o'qituvchining ijodkorligi, muloqot madaniyati, tashabbuskorligi va kasbiy pozitsiyasi aniqlanadi.

•***Miqdoriy usullar*** – testlar, reyting tizimi, baholash mezonlari va standartlashtirilgan topshiriqlar orqali bo'lajak o'qituvchining bilim va ko'nikmalarini aniq ko'rsatkichlar asosida o'lchashga xizmat qiladi. Bu usullar natijalarni solishtirish va tahlil qilish imkonini beradi.

•***Kombinatsiyalashgan usullar*** – sifatli va miqdoriy yondashuvlarning uyg'unligiga asoslanadi. Masalan, test natijalari bilan birga pedagogik amaliyotdagi faoliyatni kuzatish, portfolio tahlili va keys-stadilarni yechish natijalari kompleks tarzda baholanadi.

Ushbu baholash usullarining to'g'ri qo'llanilishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini har tomonlama va xolis aniqlashga imkon beradi hamda ularning pedagogik rivojlanishiga xizmat qiladi [3].

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini sifat jihatdan baholash ularning pedagogik faoliyatini sonli ko'rsatkichlarsiz, ya'ni mazmuniy tahlil asosida tavsiflashga qaratilgan. Bunday yondashuv bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanish darajasini chuqurroq aniqlash imkonini beradi. Sifat usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

•*Matritsa usuli* – bo'lajak o'qituvchining pedagogik fazilatlari va kompetensiyalari uni ideal o'qituvchi modeli bilan taqqoslanadi. Bu orqali uning kuchli va rivojlantirilishi zarur bo'lgan tomonlari aniqlanadi.

•*Hosilaviy xususiyatlar tizimi usuli* – bo'lajak o'qituvchining pedagogik amaliyotdagi eng muhim yutuqlari va yo'l qo'ygan xatolari tahlil qilinib, ularning o'zaro taqqoslanishi asosida kasbiy tayyorgarlik darajasi haqida xulosa chiqariladi.

•*Pedagogik faoliyatni kompleks baholash* – bo'lajak o'qituvchining dars o'tishi, tarbiyaviy ishlar olib borishi, o'quvchilar bilan ishlashi va amaliy topshiriqlarni bajarishi yaxlit holda tahlil qilinadi.

•*"360°" baholash usuli* – bo'lajak o'qituvchi o'z-o'zini baholash bilan birga, uning faoliyati rahbarlar, amaliyot rahbarlari, kursdoshlari hamda o'quvchilar tomonidan ham baholanadi. Bu uning kompetensiyalarini turli nuqtai nazardan ko'rish imkonini beradi.

•*Guruh muhokamasi* – bo'lajak o'qituvchi amaliyot rahbari yoki ustoz bilan birgalikda o'z faoliyatini tahlil qiladi, erishilgan natijalar va rivojlanish yo'nalishlari haqida fikr almashadi.

Ushbu sifat usullari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini chuqur tahlil qilish va ularning pedagogik mahoratini takomillashtirishga xizmat qiladi [4].

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini miqdoriy baholash usullari aniq hisob-kitoblarga asoslanib, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini raqamli ko'rsatkichlar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Bu metodlar pedagogik tayyorgarlik darajasini obyektiv baholash va natijalarni taqqoslash imkonini beradi.

1. *Balli baholash tizimi* – bo'lajak o'qituvchining dars faoliyati, test natijalari, amaliy topshiriqlarni bajarishi va pedagogik amaliyotdagi ishtiroki ma'lum ballar asosida baholanadi. Ushbu tizim natijalarni aniq raqamlar orqali ifodalash imkonini beradi.

2. *Rangli metodika* – kompetensiyalar darajasi ranglar orqali ifodalanadi (masalan, yuqori, o'rta va past daraja). Bu usul bo'lajak o'qituvchining qaysi yo'nalishda kuchli yoki qo'shimcha rivojlanishga muhtoj ekanini tez aniqlashga yordam beradi.

3. *Grafik profil tizimi* – bo‘lajak o‘qituvchining turli kompetensiyalari (kasbiy, kommunikativ, metodik va boshqalar) grafik ko‘rinishda aks ettiriladi. Bu uning umumiy kasbiy portretini vizual tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

4. *Erkin balli baholash usuli* – baholovchi pedagogik faoliyatning turli jihatlariga mustaqil ravishda ball qo‘yadi. Bu usulda har bir faoliyat yo‘nalishining ahamiyatiga qarab moslashuvchan baholash amalga oshiriladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetentligini baholashda qo‘llaniladigan metodika maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda tanlanadi. To‘g‘ri tanlangan baholash usuli pedagogik tayyorgarlik darajasini xolis aniqlash va uni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi [5].

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash jarayonida turli metodik va tashkiliy xatolar yuzaga kelishi mumkin. Bunday xatoliklar baholash natijalarining xolisligi va aniqligiga ta’sir ko‘rsatadi. Eng ko‘p uchraydigan muammolar quyidagilardan iborat:

1. *Baholash mezonlarining aniq belgilanmaganligi* – pedagogik kompetensiyalarni baholashda aniq va tushunarli mezonlar bo‘lmaganda natijalar subyektiv bo‘lib qoladi.

2. *Bo‘lajak o‘qituvchining o‘z-o‘zini tahlil jarayoniga yetarlicha jalb etilmasligi* – refleksiya va o‘zini baholash imkoniyati berilmaganda, uning haqiqiy rivojlanish darajasini aniqlash qiyinlashadi.

3. *Baholovchi mutaxassislarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi* – pedagogik amaliyotni baholovchi ustoz yoki komissiya a’zolari maxsus metodik tayyorgarlikka ega bo‘lmasa, baholash sifati pasayadi.

4. *Faqat yakuniy natijalarga asoslanib baholash* – bo‘lajak o‘qituvchining butun jarayondagi rivojlanishi hisobga olinmasdan, faqat oxirgi natijalar asosida xulosa chiqarilishi noto‘g‘ri baholashga olib keladi.

5. *Qayta aloqaning yetarli yo‘lga qo‘yilmasligi* – baholash jarayonida konstruktiv fikr-mulohaza berilmasa, bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kamchiliklarini anglab yetolmaydi.

6. *Kompetensiya modellari noto‘g‘ri yoki to‘liq ishlab chiqilmaganligi* – baholash tizimi ilmiy asoslanmagan bo‘lsa, natijalar ishonchsiz bo‘ladi.

7. *Inson omili va subyektivlik* – baholovchining shaxsiy munosabati, simpatiya yoki antipatiyasi natijaga ta’sir qilishi mumkin.

8. *Standart yondashuvdan chetga chiqish* – har bir talabani individual yondashuvsiz, bir xil mezon bilan baholash adolatsizlikka olib keladi.

9. *Turli pedagogik sharoitlarda kompetensiyalarni yetarlicha o‘rganmaslik* – bo‘lajak o‘qituvchining turli vaziyatlardagi faoliyati (dars, amaliyot, loyihalar) to‘liq tahlil qilinmaganda baholash to‘liq bo‘lmaydi [6].

Ushbu muammolarni kamaytirish uchun baholash jarayonini aniq mezonlar asosida tashkil etish, xolislikni ta’minlash va doimiy qayta aloqani yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik nizolar va tushunmovchiliklarning oldini olish uchun baholovchi o‘qituvchilar, metodistlar va amaliyot rahbarlarini maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish zarur. Bu tayyorgarlik ularga kompetensiyalarni to‘g‘ri baholash, aniq mezonlardan foydalanish hamda obyektiv xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shu maqsadda pedagogik ta’lim muassasalari va tegishli tashkilotlar bo‘lajak o‘qituvchilarni baholash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha trening va seminarlar tashkil etishi mumkin. Ushbu treninglar yakunida ishtirokchilar belgilangan namunadagi sertifikat yoki metodik hujjatlarni olishlari, bu esa ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Kompetentlikni baholashning turli usullari, mezonlari va darajalari mavjud bo‘lib, ular orqali bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasini xolis va tizimli aniqlash mumkin. Biroq baholash jarayonida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarni kamaytirish, mezonlarni aniq belgilash hamda baholovchilarni maxsus tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini samarali yo‘naltiradi, ularning pedagogik mahoratini oshiradi hamda zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). UNESCO. Teacher Competency Framework and Professional Standards. Paris, 2019.

(2). European Commission. Key Competences for Lifelong Learning. Brussels, 2018.

(3). Mullayev N.M. Pedagogik kompetentlik va uni rivojlantirish masalalari. Toshkent, 2021.

(4). Safarova N.N. O‘qituvchining kasbiy mahorati va kompetentligi. Sustainable development: problems, analysis, prospects. International Scientific and Practical Conference. Poland, 2023, p. 10–15.

(5). Safarova N.N. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. International conference on multidisciplinary scienc. India, 2023, p. 56–61.

(6). Safarova N.N. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishdagi muammolar va to‘siqlar. “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” jurnali, ISSN 2181–1709 (P); 2181–1717 (E). 6-son, 2024, 300–303-betlar.

Radjapova Feruza (Urganch davlat Pedagogika instituti filologiya fakulteti dekani)

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MADANIYATINI REFLEKSIV-DINAMIK MODEL ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning (SI) ta’limga jadal kirib kelishi ingliz tili o‘qituvchilariga qo‘yiladigan kasbiy talablarni tubdan o‘zgartirdi. Zamonaviy o‘qituvchidan endilikda nafaqat lingvistik va metodik kompetentlik, balki axloqiy ongdorlik, refleksiv tafakkur, kommunikativ kompetentlik va raqamli savodxonlikni qamrab oluvchi yetuk pedagogik madaniyatni namoyon etish talab qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik madaniyat, o‘qituvchilar tayyorlash, ingliz tilini o‘qitish, refleksiv amaliyot, adaptiv ta’lim, ta’limda sun’iy intellekt.*

РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ РЕФЛЕКСИВНО-ДИНАМИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ

Аннотация. *Стремительная интеграция цифровых технологий и искусственного интеллекта (ИИ) в образование коренным образом изменила профессиональные требования, предъявляемые к преподавателям английского языка. От современного преподавателя теперь ожидается не только лингвистическая и методическая компетентность, но и проявление зрелой педагогической культуры, включающей этическую осознанность, рефлексивное мышление, коммуникативную компетентность и цифровую грамотность.*

Ключевые слова: *педагогическая культура, подготовка преподавателей, преподавание английского языка, рефлексивная практика, адаптивное обучение, искусственный интеллект в образовании.*

DEVELOPING THE PEDAGOGICAL CULTURE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS BASED ON A REFLECTIVE-DYNAMIC MODEL

Annotation. *The rapid integration of digital technologies and artificial intelligence (AI) into education has fundamentally transformed the professional requirements placed on English language teachers. The modern teacher is now expected to demonstrate not only linguistic and methodological competence, but also a mature pedagogical culture encompassing ethical awareness, reflective thinking, communicative competence, and digital literacy.*

Keywords: *pedagogical culture, teacher education, English language teaching, reflective practice, adaptive learning, artificial intelligence in education.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim maydoni jadal texnologik taraqqiyot, globallashuv hamda ta’lim sifatiga bo‘lgan tobora ortib borayotgan talablar bilan tavsiflanadi. Bu omillar ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy rolini sezilarli darajada qayta shakllantirib, undan yangi kompetensiyalarni egallashni va innovatsion, texnologiyaga boy ta’lim muhitida ishonch bilan faoliyat yuritishni talab etmoqda. Aynan shu kontekstda pedagogik madaniyat malakali va istiqbolli o‘qituvchining belgilovchi xususiyatlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Pedagogik madaniyatni o‘qituvchiga o‘z kasbiy vazifalarini samarali va mas’uliyat bilan bajarish imkonini beruvchi kasbiy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, pedagogik va psixologik bilimlar, kommunikativ ko‘nikmalar, refleksiv salohiyat hamda metodik kompetensiyalarning yaxlit tizimi sifatida tushunish mumkin. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun bu konstrukt alohida ahamiyat kasb etadi: til ta’limi tabiatan muloqotga asoslangan va madaniyatlararo bo‘lib, ta’lim oluvchi markazli o‘zaro ta’sirni, ma’noni birgalikda kashf etishni va uzluksiz kasbiy o‘z-o‘zini yangilashni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Shu bois o‘qituvchining pedagogik madaniyati shunchaki alohida ko‘nikmalar yig‘indisi emas, balki kasbiy bilimning sinfda qanday namoyon bo‘lishini belgilovchi tashkiliy yo‘nalish vazifasini bajaradi.

Adaptiv ta’lim texnologiyalari va SI sohasidagi so‘nggi yutuqlar o‘qituvchilarni tayyorlashni qo‘llab-quvvatlashning yangi imkoniyatlarini ochdi. Bunday tizimlar ta’lim yo‘nalishlarini shaxsiylashtirish, tezkor va ma’lumotlarga asoslangan qayta aloqa berish hamda refleksiv amaliyotni keng ko‘lamda tashkil etish imkonini beradi. Biroq texnologiyaning o‘zi kasbiy yetuklikni tarbiyalamaydi, refleksiv poydevor bo‘lmasa, raqamli vositalar tanqidiy mulohaza hisobiga protsessual kompetentlikni kuchaytirib qo‘yish